



# BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTI



Научный вестник Бухарского государственного университета  
Scientific reports of Bukhara State University

3/2024

E-ISSN 2181-1466




9 772181 146004

ISSN 2181-6875



9 772181 687004



3/2024

<https://buxdu.uz>

**MUNDARIJA \*\*\* СОДЕРЖАНИЕ \*\*\* CONTENTS**

**TILSHUNOSLIK \*\*\* LINGUISTICS \*\*\* ЯЗЫКОЗНАНИЕ**

<b>Abdazova A.R.</b>	The features of the use of English environmental terms in the media	<b>4</b>
<b>Batirkhanova M.O.</b>	Somatik frazeologik birliklar tahlili va ularning o'rganilish tarixi	<b>10</b>
<b>Sobirova D.R.</b>	Reklama matnlarining gender xususiyatlari (tibbiyotga oid reklamalar misolida)	<b>16</b>
<b>Sadullayeva G.I.</b>	Enhancing listening comprehension: strategies, challenges and a comprehensive methodology for language learners	<b>21</b>
<b>Asadov T.H., Bakirova N.E.</b>	Ayrim etnofrazemalarning lingvokulturologik tadqiqi (o'zbek, rus, turk tillari misolida)	<b>27</b>
<b>Eshquvvatova G.N., Urinbayeva D.B.</b>	Stylistic features of proverbs in internet texts	<b>32</b>
<b>Hojiyeva M.G'.</b>	Integrating language and content: strategies and challenges in content-based language instruction	<b>37</b>
<b>Khabibova M.N.</b>	Biografik asarlardagi epistolyar matnlarning o'rni va ularning pragmatik xususiyatlar	<b>42</b>
<b>Mahmudova D.M.</b>	Building a comprehensive bilingual synchronous corpus: principles and practices	<b>46</b>
<b>Narzullayeva D.B.</b>	Qur'oni Karim leksik konfiguratsiyalari: Ka'ba toponimmi yoxud teonim?	<b>51</b>
<b>Sadikov E.T.</b>	Itifot va inkor mazmunidagi nutq aktlarining tasviriy-ifodaviy atributlari	<b>56</b>
<b>Pardayev S.Sh.</b>	Globalashuv davrida madaniyatlararo muloqot tizimidagi madaniy o'ziga xoslik	<b>61</b>
<b>Mahmudova D.M.</b>	Significance and development of linguistic corpora in Uzbekistan	<b>67</b>
<b>Safoyeva S.N.</b>	Pragmatic marker: "so" and its role in modern oral discourse	<b>71</b>
<b>Turg'unboyeva D.A.</b>	Comparative pragmatics: politeness strategies in Uzbek and English languages	<b>76</b>
<b>Xolova M.B.</b>	Tushuncha madaniy kodning shakllangan birligi sifatida	<b>82</b>
<b>Xusenova M.O'.</b>	Termin va terminologiya xususida	<b>86</b>
<b>Ziyayeva D.A.</b>	Paradigmatic analysis of speech verbs	<b>90</b>
<b>Zokirova N.S.</b>	The concept of "Linguistic picture of the world" in translation	<b>95</b>
<b>Давлатова М.Х.</b>	Воплощение английских глаголов-предикатов в функционально-семантическом поле	<b>99</b>

**ILTIFOT VA INKOR MAZMUNIDAGI NUTQ AKTLARINING TASVIRIY-IFODAVIY  
ATRIBUTLARI**

*Sadikov Erkin Tursunovich,  
Xalqaro TESOL/TEFL instruktori  
Buxoro davlat universiteti  
Ingliz tilshunosligi kafedrasida o‘qituvchisi*

***Annotatsiya.** Ingliz tili dunyo aholisining aksariyatini bir-birlari bilan bog‘laydigan xalqaro tilga aylanib bo‘ldi. Shu o‘rinda til o‘rgatish davomida o‘qituvchilarning vazifasi faqatgina o‘quvchiga tilni vosita sifatida o‘rgatish emas, balki o‘zi va boshqa xalqlarning madaniy xususiyatlarini ham o‘qitish bilan nisbatlanadi. Bu borada til o‘rganuvchilarga o‘z madaniyati va boshqalarning qadriyatlarini haqida tushuncha berish dolzarb hisoblanadi. Jarayonning jadallashishida madaniyatlararo pragmatik tadqiqotlar hal qiluvchi rol o‘ynashi mumkin.*

***Kalit so‘zlar:** kompliment, nutq aktlari, maqto, metodika, etiket, madaniy omillar.*

**ИЗОБРАЗИТЕЛЬНО-ЭКСПРЕССИВНЫЕ АТРИБУТЫ РЕЧЕВЫХ АКТОВ В  
СОДЕРЖАНИИ КОМПЛИМЕНТОВ И ОТРИЦАНИЙ**

***Аннотация.** Английский язык стал международным языком, связывающим проявления населения планеты друг с другом. На данный момент поддержка учителей в преподавании языка – это не только обучение языку как инструменту чтения, но и обучение при культурной поддержке других народов. Изучающие язык в этой области должны быть информированы о своей собственной культуре и информации других. Межкультурная прагматика может сыграть решающую роль в ускорении этого процесса.*

***Ключевые слова:** комплимент, речевые действия, похвала, методика, этикет, культурные факторы.*

**EXPRESSIVE ATTRIBUTES OF SPEECH ACTS IN THE CONTENT OF COMPLIMENTS  
AND REFUSALS**

***Abstract.** An increasing number of native English speakers from different cultures use English as a shopping language around the world, often as a tool for cross-cultural communication. English has become an international language, connecting the manifestations of the world's population with each other. At the moment, supporting teachers in language teaching is not only teaching the language as a reading tool, but also teaching with the cultural support of other peoples.*

***Keywords:** compliment, speech acts, praise, methodology, etiquette, cultural factors.*

***Kirish.** Ilmiy-nazariy qarashlar. Turli madaniyatlarga mansub ingliz tilida so‘zlashuvchilar soni global miqyosda ortib borayotganligi sababli ingliz tilidan, ko‘pincha, madaniyatlararo muloqot vositasi sifatida foydalaniladi. Ingliz tili dunyo aholisining aksariyatini bir-birlari bilan bog‘laydigan xalqaro tilga aylanib bo‘ldi. Shu o‘rinda til o‘rgatish davomida o‘qituvchilarning vazifasi faqatgina o‘quvchiga tilni vosita sifatida o‘rgatish emas, balki o‘zi va boshqa xalqlarning madaniy xususiyatlarini ham o‘qitish bilan nisbatlanadi.*

*Bu borada til o‘rganuvchilarga o‘z madaniyati va boshqalarning qadriyatlarini haqida tushuncha berish dolzarb hisoblanadi. Jarayonning jadallashishida madaniyatlararo pragmatik tadqiqotlar hal qiluvchi rol o‘ynashi mumkin.*

*Nutq harakatlarini amalga oshirishda pragmatik normalar yetakchi o‘rin tutib, bu muloqotga kirishuvchilarning qarashlari, bilimlari hamda madaniy qadriyatlarida plyuralizm – ya’ni, turli-tumanlikni keltirib chiqaradi. Boshqacha qilib aytganda, nutq aktlarining madaniy asoslari va ularga bog‘liq bo‘lgan madaniy tushunchalar har bir til va madaniyatga qarab farq qilshi tabiiy.*

*Nutq aktlarini tahlil etarkanmiz, ularning o‘qitilishi va o‘rgatilishidagi mushtarakliklar va tafovutlarni taqqoslab borish ishning ahamiyatini yanada oshiradi. V.Frans (1992) “kompliment” atamasi aslida italyancha/lotincha “complimento” so‘zi negizida shakllanganligini ta’kidlaydi. “Complimento” italyanchada*



“haqiqatni aks ettiruvchi minnatdorlik tuyg‘usi va qalbning samimiyligini ifodalovchi so‘zlar”ni ifodalaydi. Le Robert (1992), Frans tomonidan keltirilgan (1992), italyanchadan “compliment” so‘zining olingan sanasini rasman 1604 yil deb belgilaydi.

L.Chick (1996) e’tiroficha, shu tariqa, aynan XVII asrdan boshlab, xushmuomalalik va halimlik nuqtayi nazaridan birovga ehtirom ko‘rsatib, uni maqtash yoki alqash “kompliment”, ya’ni “iltifot” tarzida qo‘llanilib kelinadi. Mazkur asnoda iltifotning turli tafsirlari, tasniflari hamda ta’riflari vujudga kela boshladi. Xususan, S.Mane (1983) uni bevosita madaniyatga aloqador deb hisoblaydi. Uning nazdida iltifot “shaxs yoki guruhning, hatto jamiyatning so‘zlari, hatti-harakatlarini qadr toptiruvchi va namoyon etuvchi ko‘zgu dir”. A.Kohen (1991) va J.Holms (1994) esa iltifotni ijtimoiylashtiruvchi vosita ekanligini ta’kidlab, uni xayrixohlik va birdamlikni aks ettiruvchi yo‘l ekanligiga urg‘u berishadi.

Xushmuomalalik (inglizcha “politeness”) kategoriyasi zahirida shakllangan nutq akti – iltifot (inglizcha “compliment”)ning aynan o‘zbek tilidagi xususiyatlari keng qamrovli bo‘lib, o‘zbek madaniyatida “kompliment” so‘zi atama sifatida bir-biriga yaqin bo‘lgan qator ishtibohlarni umumlashtirishga xizmat qiladi. Xususan, iltifot, maqtov, mulozamat, rag‘bat, e’tibor, e’tirof yoki xushomad kabi so‘zlarning mujassamlashuvi aynan “kompliment”ning xususiyatini ochib berishga yo‘naltirilgan.

**Amaliy natijalar.** Quyida komplimentga ma’no va qo‘llanilishi nuqtayi nazaridan yaqin bo‘lgan so‘zlarni tahlil qilib chiqamiz. O‘zbek tilining izohli lug‘atida “iltifot” atamasi arabcha so‘z ekanligi nazarda tutiladi hamda “o‘g‘irish”, “burish”, “lutf qilish”, “e’tibor”, “marhamat” kabi ma’nolarni ifodalashi qayd etiladi. So‘zning sharhi sifatida esa kishiga qilingan marhamat, himmat, diqqat-e’tibor, yaxshi munosabat mazmunida talqin etiladi. Demak, “iltifot” so‘zi mohiyatiga ko‘ra ijobiy xususiyatni aks ettiradi, shu bilan birga, e’tibor va marhamat qilish kabi fazilatlarini ham qamrab oladi.

“Maqtov” so‘zi esa “maqtab aytilgan yoki yozilgan so‘z, gap” sifatida tatbiq etiladi, mazkur xususiyatiga ko‘ra bu so‘zni ham aksariyat holatlarda ijobiy bo‘yoqqa ega bo‘lgan leksik birlikka tenglashtirish mumkin.

“Mulozamat” (“mulozimat”) ma’no talqiniga ko‘ra, kishining ko‘nglini olish uchun ko‘rsatilgan iltifot; e’zoz-ikrom, takalluf kabi mazmunlarni ifodalaydi. Ko‘rib turganingizdek, mulozamat ham tabiatiga ko‘ra iltifot bilan deyarli bir mohiyatni in’ikos etmoqda, hatto ma’no qamrovi yuzasidan kengroq, mukammalroqdek tuyulmoqda. Aksariyat holatlarda mazkur atama o‘zbek kontekstida ijobiy mazmun tashishga xizmat qiladi hamda insonning yuksak fazilatlaridan biri sifatida e’tirof etiladi.

“Xushomad” kalimasi esa xarakteriga ko‘ra ham ijobiy, ham salbiy mazmuni bildirsa-da, asosiy sifatiga ko‘ra salbiylikka moyil bo‘ladi. Izohli lug‘atda “xushomad”ni “yoqimli so‘z”, “maqtash” kabi ma’nolaridan tashqari biror kishiga tamagirlik bilan xizmat qilish, sermulozamat bo‘lish, tilyog‘lama maqtov yoki laganbardorlik qilish mazmunida sharhlanadi.

“E’tibor” keng qamrovli so‘z, u hurmat, izzat-ikrom ko‘rsatish kabi ma’nolarni bildiradi, qo‘llanilish sohasi yuzasidan biror kimsa yoki narsaga qaratilgan diqqat-nazar, fikr, yod so‘z va jumalari bilan tafsir etiladi. Ko‘rinadiki, mazkur so‘z mohiyatan “kompliment”ni ochib berolmasa-da, uning sifatlarini ifodalashga hissa qo‘shadi.

“E’tirof etmoq” yoki “e’tirof qilmoq” shakllari ham suhbat jarayonida kontekstda turli ma’nolarni ifodalab keladi. Jumladan, arabchadan anglashiladigan asl mazmuniga ko‘ra “tanish”, “tan olmoq”, “iqror bo‘lish”, “bajarilayotgan ish-harakatni haqiqat yoki to‘g‘ri deb bilish” kabi tafsirlarga ega. Shu bilan birga, “e’tirof etmoq”ning “tasdiqlamoq” ma’nosini ham bildiradi.

“Rag‘bat” so‘zi ham arabchadan olingan bo‘lib, qator ma’nolarni ochiqlashga xizmat qiladi. Dastlabki mohiyatiga ko‘ra “xohish”, “yaxshi niyat”, “mayl” kabi mazmunlarda sharhlash mumkin. Shuningdek, “rag‘bat”ning quyidagi ma’nolari ham mavjud, ular ham so‘zlovchi nutqida rang-barang shaklda qo‘llaniladi: “qiziqtiruvchi yoki qo‘zg‘atuvchi omil”, “manfaat keltiruvchi (beruvchi) narsa”. “Rag‘bat”ning psixologik mazmuni ham mavjud bo‘lib, “inson his-tuyg‘ulari, ruhiy holatlarini rivojlantiruvchi, uni undovchi ruhiy ta’sir” kabi ma’nolarda anglashiladi.

Qiyosiy tahlillar. Komplimentlarning qamrovi va mushtarakligi qator sohalar bilan chambarchas bog‘liq. Ularning yuzaga kelishi hamda ularning ijro etilishi bevosita etika, etiket qoidalariga borib taqaladi, albatta.

“Etika” lug‘atida odob-axloq qoidalarining majmuyi bo‘lgan “etiket”ga quyidagi ta’rif berilgan: “etiket” (fransuzchadan – “yorliq”) – odamlarga bo‘lgan munosabatning tashqi ko‘rinishi (boshqalarga muomala qilish, murojaat qilish va salomlashish shakllari, jamoat joylarida o‘zini tutish) bilan bog‘liq xatti-harakatlar qoidalari to‘plami. Dastlab, bu so‘z “plastinka”, “yorliq” ma’nosiga ega edi. Bundan tashqari, ushbu tamoyilning tarixi XIV asrda yashagan Fransiya qiroli Lui nomi bilan aloqador. Qirollik ziyofatlarida mehmonlar o‘zlarini tutishlari bo‘yicha ko‘rsatmalar, tomoshalar davomida harakat qilish uchun o‘ziga xos

qo'llanma bo'lgan yo'riqnomalarni oladilar. Vaqt o'tishi bilan saroy etiket qoidalari jamiyatning ijtimoiy qoidalariga aylandi.

Bizningcha, bugungi kunda etiket deganda, shaxsning ma'lum bir vaziyat, xatti-harakatlari uchun ideal deb tan olingan, umumiy qabul qilingan ma'lumotlar jamlanmasi tushuniladi. Etiket qoidalari odamlar o'rtasidagi munosabatlarni nazorat ostida ushlab turadi, jamiyatda qabul qilingan xulq-atvor qoidalari tufayli ular jamoat joylarida o'zlarini qanday tutish va boshqa odamlar bilan qay tariqa munosabatda bo'lishlarini ko'rsatadi (masalan, ziyofatda, konsertda yoki muloqot jarayonida o'zini qanday tutish kabi holatlarni belgilaydi).

Tashqi ko'rinish odob-axloqi ma'lum bir vaziyatda insonning qanday ko'rinishda bo'lishi kerakligini belgilaydi, ya'ni jamiyatda insonning tashqi ko'rinishiga qo'yiladigan umumiy qabul qilingan talablar to'plamidir. Kiyim tanlash, uning ranglari, soch turmashi, aksessuarlar tashqi ko'rinish qoidalariga bog'liq. Insonning ichki olami uning tashqi ko'rinishi bilan belgilanadi, shuning uchun tashqi ko'rinish odob-axloq qoidalariga rioya qilishga muhim e'tibor beriladi.

Nutq odobi xulq-atvor va tashqi ko'rinish odobi bilan bir qatorda, odamlarning muloqotiga mas'ul bo'lgan umumiy etiket tushunchasining tarkibiy qismidir. Nutq odobi xulq-atvor odoblari bilan chambarchas bog'liq, chunki kommunikativ ta'sirlar ham insonning umumiy xatti-harakatlarining ko'rinishidir. Nutq odob-axloq qoidalarini bilish uning sohibi uchun muhim afzallik sanaladi. Muloqotda xatolarga yo'l qo'ymaslik, muayyan noqulaylikdan qochish imkoni har doim ham mavjud emas. Qolaversa, nutq odob-axloq qoidalariga ega bo'lish insonni jamiyatda yanada erkin qiladi, atrofdagilar uchun uning obro'-e'tiborini oshiradi, boshqa odamlarning hurmatiga sazovor etadi.

Mazkur etiket qoidalari asosida namoyon bo'ladigan iltifot epideyktik nutqning kichik shakli sifatida ma'lum shartlarga javob berishi kerak:

- 1) iltifot uchun obyekt maqtovga loyiq narsa bo'lishi kerak;
- 2) yuqori ijobiy sifatga ega bo'lgan kishi adresat sifatida harakat qilishi lozim;
- 3) adresatga murojaat qilgan shaxs; iltifot aytayotganda u, albatta, suhbatdoshining shaxsiyatini hisobga olishi joiz;
- 4) kompliment janri taqqoslashni afzal ko'radi, shu asnoda, giperbola ham tez-tez ishlatilishini e'tiborga olish darkor.

Zamonaviy olimlar, ya'ni N. I. Formanovskaya, L. A. Vvedenskaya, I. A. Sternin epideyktik janrlarning ikkita katta guruhini ajratib ko'rsatishadi: kundalik va rasmiy.

Kundalik epideyktik janrlar sirasiga, tabriklar, qadah so'zlari, hamdardlik, shikoyatlar hamda ayblovlar kiradi. Ikkinchi janr esa tantanali marosimlarda so'zlanadigan nutqlar, salomlashish va xayrlashuv nutqlari, inaguratsiya marosimlaridagi vaziyatlarni o'z ichiga oladi. Kompliment esa universal bo'lib, bevosita ushbu ikkita janrga taalluqli bo'lishi mumkin.

Tadqiqotchilar iltifot va maqtovni ham farqlaydilar. O.S.Issers ta'kidlashicha, maqtov uchun asosiy maqsad ijobiy baho, iltifot uchun esa xayrixohlikni bildirishdir. "Maqtov uchun muvaffaqiyat ko'rsatkichi – baholashni qabul qilish, muvaffaqiyatsizlik ko'rsatkichi – uni rad etish", "iltifot uchun esa hatto adresatning so'zlovchi bilan kelishmovchiligi muvaffaqiyatsizlikni anglatmaydi". Ammo mazkur holatda qabul qiluvchining fazilatlarini, bilimlari, ko'nikmalarini baholash va maqtovga sazovor bo'lish uchun siz o'zingizni ijobiy tomondan ko'rsatib, biror narsa qilishingiz kerak. Bu borada iltifot cheklanmaydi.

I.A.Sternin fikricha, iltifot nutq odobi janri sifatida odamlarning kommunikativ xulq-atvorini aks ettiradi. Kommunikativ xulq-atvor deganda ma'lum bir lingvomadaniy jamoaning muloqot qoidalari va an'analari tushuniladi. U qoida tariqasida, aniq individual xususiyatga ega. Binobarin, iltifot ham o'ziga xosdir. E'tirof etish joizki, bevosita iltifotlar komplimentorlar aynan qanday inson ekanliklari (ularning bilim darajasi, mantiqiy fikrlashi, xarakteri) ni ochiqlashga yordam beruvchi ko'zgu sifatida ham xizmat qiladi.

Belgilangan maqsadlarga va uzoq muddatli natijalarga erishish uchun nutq xatti-harakatlari strategiyalaridan foydalaniladi. Nutq strategiyasi, aslida, nutqning o'zaro ta'siri jarayonining ma'lum bir rejasini tuzish va amalga oshirish bo'lib, u muayyan aloqa shartlarini bajarish bilan belgilanadi va motivlar, ehtiyojlar, intilishlar va, umuman olganda, kommunikativ akt ishtirokchilarining shaxsiyatini namoyon etadi.

Muloqotni uyg'unlashtirish strategiyasi uchun asosiy maqsad aloqani muvaffaqiyatli o'rnatishdir. Bizning nazdimizda bu jarayon bir necha bosqichlardan o'tadi. Bular quyidagilar:

- psixologik to'siqlarni yengish;
- umumiy manfaatlarni izlash;
- muloqot tamoyillarini ochib berish;
- muloqotga xalaqit beradigan sifatlarni topish;
- suhbatdoshlarni bir-biriga ko'niktirish va aloqa o'rnatish.

Muloqot jarayonida suhbatdoshning taklifi, iltimosi va iltifotiga munosabat bildirishda soʻzlovchi ularni qabul qilish bilan bir qatorda, *rad etishi* ham mumkin. *Inkorni ifodalovchi nutq aktlari* keng qamrovli boʻlib, ularning boshqa nutq aktlari bilan oʻzaro bogʻliqligi mazkur aktlarni yanada mukammalroq qilib koʻrsatadi.

M. Celce Murcia va E. Olshtain (2007) larning yangi tahrir va izohlardagi nutq aktlari tasnifida inkorni ifodalovchi nutq aktlari beshinchi tartib raqam ostida – “Commisives” ruknining tarkibiy qismlaridan biri sifatida eʼtirof etiladi. Mazkur klassifikatsiyaga koʻra, inkorni ifodalovchi nutq aktlari muloqotga kirishuvchilarning oʻzaro taklif, iltimos yoki iltifotlarini rad etish jarayonida vujudga keladigan “yuz” (qiyofa) ning salbiy ifodalarini aks ettiradigan kuchli akt sifatida tasvirlanadi. Searle (1975) ning nutq aktlarini tasnifini yanada rivojlantirar ekanlar, olimlar “Face threatening” atamasiga juda koʻp marta murojaat qiladilar. Mazkur ishtibohni bevosita oʻzbekchalashtiradigan boʻlsak, “face” – yuz, qiyofa, “threatening” – esa “qoʻrqituvchi”, “choʻchituvchi”, “tahdid qiluvchi” mazmunlarini ifodalaydi. Demak, muloqot jarayonida maʼlum bir burch, vazifa yoki maʼsuliyatdan voz kechish yoki rad etish natijasida kishining yuzida salbiylik yoki norozilik bilan bogʻliq ifodalar paydo boʻlishi mumkin.

Umuman olganda, inkorni ifodalovchi nutq aktlari biror bir ish (taklif, yumush, burch, iltimos, iltifot)ni bajarishga nisbatan hafsalasizlik, ishtiyoqsizlik, befarqlik natijasida hosil boʻlishi mumkin. Ammo ayrim kezlarda uzrli sababning ham mavjudligi bu turdagi nutq aktlarini harakatga keltirishi mumkin.

Inkorni ifodalovchi nutq aktlarini izchil tadqiq etish yigirmanchi asrning saksoninchi yillaridan ommalasha boshladi. Mazkur tadqiqotlarning aksariyati A.Viyerbeska (Wierbicka)ning 1987-yildagi “inkorni ifodalovchi nutq aktlari bu – “yoʻq” deyish demakdir” taʼrifidan soʻng yuzaga keldi. Viyerbeskaning mazkur qisqa taʼrifidan anglash mumkinki, inkorni ifodalash yoki rad etish nazarda tutilganda, adresatga murojaatga nisbatan “yoʻq, men buni qila olmayman yoki qilmayman” qabilida munosabat bildirish eʼtiborga olingan. P.Brown va S.Levinson (1987) esa inkorni ifodalovchi nutq aktlarining qoʻpol tarzda yangramasligi uchun xushmuomalalik tamoyiliga amal qilishning zarurati haqida mulohaza yuritadilar.

Tadqiqotchilardan K. Bardovi-Harlig, B.S. Hartford (1990), L. B. Beebe (1990), Feliks-Brasdefer(2004), S.Tanck (2004), W.Hong (2011) ham inkorni ifodalovchi nutq aktlarini isloh qilarkanlar, ular mazkur elementlarning ESL hamda EFLni oʻqitish jarayonidagi ahamiyatiga toʻxtaladilar, shu bilan birga, raddiyatni ifodalash uchun madaniyatlararo tafovutlarning mavjud yoki mavjud emasligi yuzasidan xulosalar kerakligini taʼkidlaydilar. Inkorni ifodalovchi nutq aktlari informativ (maʼlumot tashuvchi), imperativ (taʼkidlovchi) va baholovchi xarakterga ega boʻlib, ular shaklan inkorni mutlaq va qisman ifodalovchi turlarga boʻlinadi.

Mutlaq inkorni ifoda etuvchi aktlar suhbatdoshning qarashlari, istaklari adresatnikiga umuman muvofiq kelmagan taqdirda vujudga keladi. Qisman inkorni ifoda etuvchi aktlar esa suhbatdoshning nuqtayi nazari yoki xohishlari adresatniki bilan hamohang boʻlmasa-da, rad etish jarayonida qatʼiyat u qadar ham koʻzga tashlanmaydi, shu bilan birga, inkor-javob amalga oshirilgan holatda ham, muloyimlik hamda samimiyat saqlab qolinadi.

Rad etishni amalga oshirish turli madaniyat vakillari bilan turli madaniyatlararo tadqiqotlarda oʻrganilgan boʻlib, shu jumladan, yapon (Beebe va boshqalar, 1990; Ikoma va Shimura, 1994; Jungheim, 2006; Kodama, 1996), xitoy (Chang, 2009, 2011; Liao va Bresnaxan, 1996), koreys (Kvon, 2004; Lyuh, 1992), arab (Al-Eryani, 2008; Al-Issa, 2003; Nelson va b., 2002), indoneziya (Aziz, 2000), ispan (Félix-Brasdefer, 2006, 2008; Lauper, 1997), tay (Wannaruk, 2008), va vyetnam (Nguyen, 2006) lik tadqiqotchilarning aksariyati ingliz tili ona tili boʻlmaganlarning ushbu strategiyadan javob tariqasida foydalanishlarida (oʻz haqiqiy ona tillari) taʼsirining muqarrar boʻlishini taʼkidlaydilar. Natijada tillararo madaniy nouygʻunlik vujudga kelishi hamda mazkur jihat suhbat jarayoniga salbiy taʼsir etishi yoki oʻzaro tushunmovchilikni keltirib chiqarishi mumkin.

Baʼzi uslubiy farqlarga qaramay, deyarli barcha tadqiqotlar “rad etishni amalga oshirish bir til va madaniyatdan boshqasiga koʻra farq qiladi, qolaversa, turlicha aks etadi”, degan yaxlit tamoyilga asoslanadi. Shuning uchun boshqa tildagi madaniy meʼyorlarni bilish suhbatning naqadar samarali tarzda amalga oshishiga sabab boʻlishi sifatida eʼtirof etiladi. Binobarin, (Al-Eryani, 2008; Wannaruk, 2008); rad etish sabablari sifatida (Lauper, 1997); suhbatdoshlarning ijtimoiy maqom (status) farqlari (Beebe va boshqalar, 1990); va oʻquvchilarning ikkinchi tilni idrok etish xususiyatlari, diniy eʼtiqodlari (Al-Issa, 2003) kabi jihatlar ularning tanlovlariga taʼsir qilishi mumkin.

**Xulosalar.** Ijtimoiy-madaniy qoidalarni bilish boshqa madaniyat vakillari bilan samarali muloqot qilish uchun zaruriy shartdir. Bu tushuncha nafaqat ijtimoiy meʼyorlarni, balki muloqot maqsadlariga erishish uchun tildan foydalanish usullarini ham oʻz ichiga oladi. Bir xil ijtimoiy-madaniy muhitga ega boʻlgan

odamlar bilan muloqot qilish, odatda, chet el madaniyati vakillari bilan muloqot qilishdan ko'ra osonroq kechadi. Shu tariqa, iltifot muloqotni uyg'unlashtirish strategiyasi doirasida, ayniqsa, boshlangan muloqotning birinchi bosqichlarini yengish uchun samarali vositaga aylanishi mumkin.

### ADABIYOTLAR:

1. Rasulov, Z. (2021). *Reduction as the way of the language economy manifestation*. Центр научных публикаций (buxdu.Uz), 1(1). Извлечено от [http://journal.buxdu.uz/index.php/journals\\_buxdu/article/view/2943](http://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/2943)
2. Rasulov, Z. I. ., & Saidov, K. S. . (2022). *Linguistic Economy as an Inseparable Law of Language Evolution. Integration of Pragmalinguistics, Functional Translation Studies and Language Teaching Processes*, 8–12. Retrieved from <http://www.conferenceseries.info/index.php/online/article/view/28>
3. Rasulov, Z. (2022). *Об объекте исследования когнитивной семантики*. центр научных публикаций (buxdu.Uz), 8(8). Извлечено от [http://journal.buxdu.uz/index.php/journals\\_buxdu/article/view/4346](http://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/4346)
4. Sadikov, E. (2022). *Noval Teaching Technologies of Pragmatic Speech Acts*. Центр научных публикаций (buxdu.Uz), 25(25). извлечено от [http://journal.buxdu.uz/index.php/journals\\_buxdu/article/view/8389](http://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/8389)
5. Sadikov, E. T. (2021). *Teaching pragmatic skills and abilities through activities*. *ISJ Theoretical & Applied Science*, 11(103), 1139-1141.
6. Sadikov Erkin Tursunovich. (2021). *Implementing and assessing pragmatic speech act divergences in the esl classroom*. *Eurasian Journal of Academic Research*, 1(9), 220–223. извлечено от <https://www.inacademy.uz/index.php/ejar/article/view/134>
7. Erkin Tursunovich Sadikov (2021). *Teaching pragmatic speech acts through the receptive and productive skills*. *Academic research in educational sciences*, 2 (11), 463-476.
8. Shokirovna, S. M. *The Issue of Literary Norms in the Language of Cinema*. *International Journal on Integrated Education*, 3(3), 35-40.
9. Sodikova T. D. *Depiction of Romantic Love in Muslihabegim Miskin's Poetry* //Middle European Scientific Bulletin. – 2021. – T. 8.
10. Tursunovich, S. E. . (2021). *Teaching Pragmatics to Uzbek Learners of English*. *Middle European Scientific Bulletin*, 19, 120-122. <https://doi.org/10.47494/mesb.2021.19.948>
11. Sadikov, E. (2022). *Teateaching and assessing speech acts in the esl classroom*. Центр научных публикаций (buxdu.Uz), 24(24). извлечено от [http://journal.buxdu.uz/index.php/journals\\_buxdu/article/view/8337](http://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/8337)